

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasida professori

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari.....	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari.....	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development: Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development.....	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли.....	34
Кучаров Абдор Сабирижанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соискатель	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot"ning o'rni.....	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyetdinov Majit Janizagovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash.....	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellash tizimining samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan.....	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturovov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abdutarapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxeimedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендир Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri	222
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги	233
Рашидов Рахимжон Искандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров.....	299
Очилова Хилола Фармоновна, к.э.н., доцент	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategiyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi o'z shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktorant	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров.....	334
Джурбаев Отабек Джурбаевич, доцент кафедры	
Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана.....	341
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeve Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Бахромов Мирзаахмад Рустам угли, студент; Абдикаримова Динара Рустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
Д. К. Исмагилов, кандидат педагогических наук, доцент	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



BANK MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY MEXANIZMLARNING O'RNI



Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li
Toshent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda bankning xavfsizlikni ta'minlashda huquqiy mexanizmining ahamiyati ochib berilgan. Muallfning fikricha, himoyalashning mustaqil obyektini sifatida bankning kriminalistik tavsifini ishlab chiqish uning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash tizimining bir bo'g'ini hisoblanadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy xavfsizlik, kriminalistika, firibgarlik, jinoyat, huquqni muhofaza qilish organlari, bank tizimi, kredit.

Аннотация: В статье раскрывается значение правового механизма банка в обеспечении безопасности на сегодняшний день. По мнению автора, разработка криминалистической характеристики банка как самостоятельного объекта защиты является частью системы обеспечения его финансовой безопасности.

Ключевые слова: финансовая безопасность, криминалистика, мошенничество, преступление, правоприменение, банковская система, кредит.

Abstract: In the article has been revealed the importance of the legal mechanism of the bank in ensuring security today. According to the author, the development of the forensic characteristics of the bank as an independent object of protection is part of the system for ensuring its financial security.

Key words: financial security, forensics, fraud, crime, law enforcement, banking system, credit.

1. KIRISH

Bankning keng ko'lamli xavfsizligini ta'minlash vazifalari siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa xarakterdagi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidlarning (xavflarning) oldini olish orqali uning normal ishlashi va o'z ustav maqsadlariga erishishi uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Tahdidlar yuzaga kelgan taqdirda esa – ularning zararli oqibatlari salbiy ta'sirini kamaytirishdir. Ushbu maqsadlarga erishish bankni turli xil holatlarning salbiy oqibatlaridan: davlat darajasida qabul qilingan alohida siyosiy qarorlarning salbiy oqibatlaridan boshlab iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiy kataklizmlar, tabiat hodisalari, turli xil subyektlarning noto'g'ri harakatlari yoki qasddan jinoiy tajovuzlaridan himoya qilishgacha bo'lgan keng ko'lamli chora-tadbirlardan foydalanishni talab qiladi. Bank xavfsizligini ta'minlash vazifasi "keng ma'noda" shunday ko'rinish kasb etadi.

2. ADABIYOTLAR SHARHI

Kriminalistika vositalari va usullaridan foydalanish maqsadlari haqida so'z borganda, kriminalistika vositalari va sud tekshiruvi (tergov) usullari hamda kriminalistika vositalari va jinoyatchilikning oldini olish usullari o'rtasidagi chegaralarning ma'lum bir shartlilikini yodda tutish kerak. Bu borada R. S. Belkin ta'kidlaganidek, "... ushbu bo'linish ma'lum darajada shartli hisoblanadi, chunki ba'zi hollarda sud tekshiruvlari vositalari va usullari jinoyatchilikning oldini olish uchun xizmat qiladi va aksincha. Biroq, uslubiy maqsadlarda bunday tasnif maqbul ko'rinadi".^[4]

Darhaqiqat, jinoyatlarni ochish va tergov qilishga hissa qo'shish orqali kriminalistik choralar jazoning muqarrarliligi tamoyilini amalga oshiradi va shu bilan ehtimoliy jinoyatchilar rejalarining oldini olishda ishtirok etadi. O'z navbatida, jinoiy tajovuzlarning oldini olish bo'yicha oldindan ko'rilgan choralar ko'pincha sodir etilgan jinoyatlarni ochish va tergov qilish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Biroq shuni ta'kidlash kerakki, bank (yoki har qanday himoyalash obyekti) xavfsizligini ta'minlash manfaatlari asosan jinoyat sodir etish va jinoiy ish qo'zg'atishdan oldin subyektlarning jinoiy rejalarining oldini olishga imkon beradigan kriminalistik profilaktika vositalari va usullaridan foydalanish bilan bog'liq. Bundan tashqari,



himoya obyekti nuqtayi nazaridan, bu ogohlantirish choralari maqbulroq hisoblanadi va birinchi navbatda amalga oshirilishi kerak.

Haqiqiy vaziyatda huquqni muhofaza qilish organlari va bankning xavfsizlik xizmatlari faoliyatidagi profilaktika choralarining ulushi sezilarli darajada farqlanadi. M. Sh. Maxtayev tergov organlari ishida ogohlantirish funksiyasining kamtarona o'rnini ta'kidlar ekan, buni "inertsia kuchi va tergov ishi usullari va vositalarining o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlaydi". Ayrim mualliflar esa bu bora anchayin qat'iyat bilan fikr yuritadilar va tergovchi faoliyatidagi profilaktika funksiyasi protsessual tergovning umumiy funksiyasi bilan to'liq qamrab olingan deb hisoblaydilar. ^[1]

R. S. Belkin tomonidan taklif qilingan kriminologiyaning maxsus vazifalari ro'yxatida jinoyatlarning oldini olish uchun kriminalistika vositalari va usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish vazifasi oltidan beshinchi o'rinni egallashi muhimdir. E. P. Ishchenko tahriri ostidagi oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan kriminologiya darsligida keltirilgan kriminologiyaning maxsus vazifalari ro'yxatida ham unga taxminan bir xil o'rin (beshdan to'rtinchisi) berilgan. Ustuvor vazifalarning bu tartibda joylashishi qonun chiqaruvchining irodasiga ham mos keladi, chunki u jinoyatlarni tez va to'liq oshkor qilishni jinoyat protsessining birinchi vazifasi deb biladi. ^[4]

Umuman olganda, bank xavfsizligi juda keng ko'lamli chora-tadbirlar tizimi bilan ta'minlanganligi sababli, muammoni yanada tergov qilish mantig'i jinoyatlarning oldini olishning kriminalistik vositalari va usullari hamda "kriminalistik bo'lmagan"lar o'rtasidagi asosiy farqlarni oldindan aniqlashni talab qiladi.

R. S. Belkinning ta'rifiga ko'ra: "Jinoyatchilikka qarshi kurashning kriminalistik vositalari va usullari bilim obyekti sifatida va kriminalistik ilmiy tadqiqotlar natijasi o'laroq kelib chiqish manbai, mazmuni, maqsadlari va qo'llanish subyektiga ko'ra farq qiladi". Shubhasiz, yuqorida aytib o'tilgan belgilar jinoyatlarning oldini olish maqsadida qo'llanadigan bank xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kriminalistika vositalari va usullarining mohiyatini aniqlash uchun ham ishlatilishi mumkin (jinoyatchilikka qarshi kurashning xususiy sohasi).

Ushbu yondashuv bank xavfsizligini ta'minlashning faqat quyidagi vositalari va usullarini kriminalistik deb tasniflashga imkon beradi:

- a) ilmiy umumlashtirish hamda tergov va ekspert amaliyotini (kelib chiqish manbai) anglash mahsuli sanaladi;
- b) kriminalistika ilmi tomonidan kriminalistika texnikasi, kriminalistika taktikasi va metodikasi (mazmuni) tarkibiga kiritilgan;
- d) jinoyatlarni tergov qilish va ularning oldini olish maqsadida ishlatiladi (xizmati vazifasi);
- e) ulardan qo'llash uchun maxsus vakolatga ega bo'lgan subyektlar foydalanadilar: surishtiruv va tergov organlari xodimlari, ekspertlar, prokurorlar (qo'llash subyekti). ^[3]

Yuqoridagi xususiyatlar to'plami klassik kriminologiya tomonidan to'liq deb tan olingan. Bu shuni anglatadiki, qo'llangan vositalar va usullarning xususiyatlarida ulardan kamida bittasining yo'qligi ikkinchisini ushbu atamaning aniq ma'nosida kriminalistika sifatidan mahrum qiladi. Biroq, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sohasida sodir bo'layotgan tabiiy jarayonlar bir qator metodologik xususiyatga ega muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu, birinchi navbatda, jinoyatlarni tergov qilish va ularning oldini olish bo'yicha kriminalistik choralardan foydalanadigan subyektlar doirasi va kriminalistika qo'llanadigan sohalar to'g'risidagi tasavvurlarga taalluqli. Qabul qilingan ilmiy qarashlarga muvofiq, surishtiruv organi, tergovchi, prokuror, sud, ekspert yuqorida nazarda tutilgan subyektlar hisoblanadi. E. P. Ishchenko tahriri ostida chop etilgan kriminologiya darsligida berilgan ta'rifga ko'ra, "kriminalistika huquqni muhofaza qilish organlariga jinoyat ishi yurituvda va jinoyatchilikning oldini olishda haqiqatni aniqlashga yordam beradigan fan sifatida paydo bo'ldi va rivojlanmoqda. Shuning uchun kriminalistika tergovchi, sud, sud ekspertizasi, jinoyatlarni ochish va tergov qilish, jinoyat ishlarini ko'rib chiqish uchun operativ ishda namoyon bo'ladigan obyektiv voqelik qonuniyatlarini aniq o'rganadi". Kriminalistikaning (binobarin uning ilmiy ishlanmalarini qo'llaydigan subyektlarning ham) jinoyat ishi yurituviga "qattiq" bog'lanishi V. A. Obratsov tahriri ostidagi universitetlar uchun mo'ljallangan kriminalistika darsligi mualliflariga ham xosdir. ^[4]

Darslikdagi ta'rifga ko'ra, "kriminalistika bu – jinoyat ishi yurituvda amaliy tergov olib borish (qidiruv va aqliy faoliyat) texnologiyasi va vositalari haqidagi fan".

O'z davrida A. A. Eysman kriminalistikaning xizmat funksiyasi va vazifalarini birmuncha batafsilroq belgilab bergan. Uning fikricha, kriminalistikaning xizmat funksiyasi va vazifalari huquqiy sohaga tegishli. ^[5]

3. TAHLIL VA NATIJALAR

Maxfiy ma'lumotlardan (tijorat va bank sirlaridan) foydalanish sohasida bank xavfsizligini ta'minlashga qonuniy vakolat berilgan yana bir subyekt bu axborotni himoya qilish bo'yicha maxsus xizmatlardir. Ushbu xizmatlar axborot egalari tomonidan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq yaratiladi. Ushbu talabga rioya qilmaslik maxfiy ma'lumot egasini uni huquqiy himoya qilish imkoniyatidan mahrum qiladi.



Bankning maxfiy ma'lumotlarini jinoiy-huquqiy himoya qilish O'zR Jinoyat kodeksining 183-moddasiga (tijorat yoki bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni noqonuniy olish va oshkor qilish), hujjat va tamg'alarni soxtalashtirish sodir etilgan hollarda esa – jinoiy javobgarlikni belgilaydigan O'zR JKning 228-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. ^[1]

Bankning axborot xavfsizligi xizmatlari bankning axborot va axborotlashtirish obyektlariga ruxsatsiz kirishga urinishlarni aniqlash, qayd yetish va to'xtatish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Biroq, ularning asosiy vazifasi bankning maxfiy va kompyuter ma'lumotlariga noqonuniy (shu jumladan jinoiy) tajovuzlarning oldini olish bo'yicha ishonchli chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va tashkil etish hisoblanadi.

Tabiiyki, axborotni himoya qilishni ta'minlash uchun bankning tegishli xizmatlari boshqalar qatori kriminalistikada qo'llanadigan vositalar va usullardan ham foydalanadilar. Shunday bo'lsa-da, yuqoridagi chora-tadbirlarning amalga bajarilishini ta'minlaydigan maxsus bo'linmalar xodimlari ham ushbu tushunchaning bir ma'nosida kriminalistika vositalari va usullaridan foydalanish subyektlari hisoblanmaydi.

Shu sababli, yuqorida sanab o'tilgan barcha holatlarda qo'llanadigan jinoyatlarni aniqlash va ularning oldini olish choralarini bir-biri bilan sezilarli darajada o'xshashligiga qaramay, tom ma'noda kriminalistik deb atash mumkin emas. Ularning orasidagi asosiy farq – jinoyat-protsessual qonunchiligida kriminalistik mazmundagi vositalar va usullardan foydalanish bo'yicha maxsus vakolatga ega bo'lgan "to'laqonli" subyektning yo'qligidir. Biroq real hayotda ushbu vakolatlarga ega bo'lmagan subyektlar nafaqat kriminalistika ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan himoya choralarini amalga oshiradilar, balki ba'zi hollarda jinoyat protsessi ishtirokchilariga qaraganda samaraliroq harakat qiladilar. Bu aksariyat hollarda jinoyat ishi ishtirokchilari har doim ham, masalan, bank ishini tashkil etish va texnologiyasini chuqur o'rganish hamda ularning himoya xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni taklif qilish imkoniyatiga ega emasligi bilan izohlanadi. Aynan shunday holatlarga kriminologiya darsligidan quyidagi amaliy maslahatlar qo'llanadi: "agar tergovchi aniq oldini olish choralarini tavsiya qila olmasa, u ularning yo'nalishidagi ko'rsatmalar bilangina cheklanishi mumkin". Bunday ko'rsatmalar tafsilotlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish, qoida tariqasida, xavfsizlik xizmatlari yoki bankning boshqa organlariga yuklatiladi.

Bank xavfsizligini ta'minlashda amalga (qonun hujjatlarida belgilangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq) ikki toifadagi subyektlar ishtirok etadilar:

- a) jinoyat protsessi doirasida kriminalistikaning vositalari va usullaridan foydalanish huquqiga ega bo'lgan subyektlar;
- b) jinoyat protsessi doirasidan tashqarida kriminalistikada ishlab chiqilgan jinoyatchilikning oldini olish choralarini amalga oshiruvchi subyektlar.

Bunda, ikkinchi toifa tomonidan kriminalistikaning vositalari va usullaridan foydalanish qonunga zid emas.

Nazarimizda, so'nggi yillarda kriminalistikaning ilmiy yutuqlarini qo'llash doirasi nafaqat uning ishtirokchilari (subyektlari) sonining ortishi, balki ulardan inson faoliyatining yangi sohalarida foydalanish hisobiga ham kengayib borish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Kriminalistika vositalari va usullarining jinoyat ishi yurituvdagi vazifalari bilan belgilangan chegaralardan tashqariga chiqishi (yuqorida aytib o'tilganidek) zamonaviy olimlar va amaliyotchilar tomonidan qayd etilgan.

MDH olimi professor A. F. Volinskiy tahriri ostidagi oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan kriminalistika darsligi mualliflariga ko'ra, "... fuqarolik va arbitraj jarayonlarida, ma'muriy ish yuritishda to'plash, tadqiq qilish, baholash va dalillardan foydalanishga nisbatan kriminalistik yondashuvlar anchayin faol tarqalishi uchun hech qanday to'siq yo'q".

Bunday holat bankning maxsus organlari tomonidan o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadida foydalaniladigan texnik-kriminalistik vositalarining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Bunda, to'g'ridan to'g'ri mo'ljallangan maqsadga ko'ra, ushbu vositalar foydalanishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) jinoiy tajovuz sodir etish ehtimolini murakkablashtiradi yoki bartaraf etadi qiladi;
- b) daliliy ma'lumotlarning paydo bo'lishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Ushbu guruhlarining birinchisi doirasida banklar himoya signallari, qulflash moslamalari, kompyuter tarmoqlarini ruxsatsiz kirishdan texnik himoya qilish moslamalari, bank kompyuter tarmoqlari va ularda aylanib yuradigan ma'lumotlarni himoya qilish uchun dasturiy vositalardan keng foydalanadilar.

Ikkinchi guruh vositalari doirasida jinoyatchining jinoyat sodir etish joyidagi harakatlarini qayd etish imkonini beradigan texnologik videokameralardan; jinoyat sodir etishga urinishda (masalan, bankomatni buzish) jinoyatchida mustahkam bo'yoq izlarini qoldiradigan maxsus tuzoqlardan; kompyuter tarmog'iga noqonuniy buzib kirishga bo'lgan urinishlarni, bunday urinish amalga oshirilgan chetdagi qurilmaning manzili va tajovuz subyektiga xos bo'lgan belgilarni qayd etuvchi kompyuter dasturlaridan foydalaniladi;

So'nggi paytlarda banklar xavfsizligini ta'minlashda faktlar, subyektlar, obyektlar va noqonuniy faoliyat izlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan turli xil nodavlat hisobvaraqlardan tobora ko'proq foydalanilm-



oqda. Ular kriminalistika tibbiyot texnologiyasining nazariy qoidalari va tavsiyalari doirasida ishlab chiqilgan kriminalistik yozuvlar bilan bir xil o'xshashlikka ega. Bunday ixtisoslashtirilgan axborot tizimlari har bir alohida bankda, shuningdek, banklararo tashkilotlar doirasida yaratilib, jinoyatlarning oldini olishda, birinchi navbatda, kredit sohasida va veksellarni muomalasi sohasida faol foydalanilmoqda.

Bank mulkiga tajovuzlarning eng keng tarqalgan turlaridan biri bu – kreditlash sohasidagi firibgarlik harakatlari.

Firibgarlik, ya'ni bironing mol-mulkini o'g'irlash yoki aldash yoxud ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan bironing mol-mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasiga binoan jinoyat hisoblanadi.

Huquqni muhofaza qilish organlarining ma'lumotlariga ko'ra, o'g'irlikning ushbu usuli kredit-moliya sohasida sodir etilgan jinoyatlar umumiy sonining qariyb 80 foizini tashkil qiladi.

Firibgarlik predmeti ushbu tushunchaning kriminalistik ma'nosida kredit operatsiyalarini ta'minlash uchun mo'ljallangan bank aktivlarini anglatadi: naqd pul; naqd pul ekvivalentlari – qimmatli qog'ozlar, veksellar, obligatsiyalar, naqd pul olish vositasi sifatida xizmat qiladigan to'lov vositalari (to'lov topshiriqnomalari, akkreditivlar).

Kredit olishda firibgarlik qilish usuli bir qator elementlardan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'g'irlikka tayyorgarlik ko'rish bo'yicha harakatlar tizimi;
- mablag'larga egalik qilish;
- jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va uni sodir etish paytida ham, undan keyin ham amalga oshirilgan jinoyat harakatni va aybdorlarni yashirishga qaratilgan niqob.

Sanab o'tilgan keltirilgan elementlarni bir-biridan farqlash ma'lum miqdordagi shartlilikni o'z ichiga oladi va asosan uslubiy maqsadlarda amalga oshiriladi. Real vaziyatlarda ularni vaqt va ketma-ketlik bo'yicha ajratish imkoniyati yo'q. O'g'irlikni yashirishga qaratilgan harakatlar ko'pincha unga tayyorgarlik bilan bir vaqtda amalga oshiriladi va ikkinchisining ajralmas qismi hisoblanadi.

Kredit olishda firibgarlikni sodir etish usuli sifatida aldovning mohiyati shundaki, u aybdorning kredit shartnomasini tuzishda o'z zimmasiga olgan majburiyatlarga nisbatan haqiqiy maqsadlari va niyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikda ko'rinadi.

Ko'rsatib o'tilgan asosiy vaziyatda aybdor ko'proq xususiy xarakterdagi yolg'on ma'lumotlardan foydalanadi (bankka taqdim etadi), shu jumladan: qarz oluvchi haqida, kreditning haqiqiy maqsadlari haqida hamda taxmin qilingan kelishuv predmeti va ta'minlash shartlari haqida. (1-rasm)

Qarz oluvchi haqida yolg'on ma'lumotlar	Qarz oluvchi tashkilot haqidagi soxta ma'lumotlar, qoida tariqasida, o'g'irlik sodir etish maqsadida mavjud bo'lmagan yoki maxsus tuzilgan kompaniya haqidagi ma'lumotlar bilan bog'liq. Ushbu ma'lumotlar guruhiga tashkilot rahbari (yoki vakili) shaxsi to'g'risidagi yolg'on ma'lumotlar kiradi
Kreditning haqiqiy maqsadlari haqida ma'lumotlarning yolg'onligi	Bunda yolg'on qarz oluvchining olingan kreditni real ishlab chiqarish yoki tijorat faoliyati uchun ishlatish niyati haqidagi haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlardan iborat bo'lib, aybdor harakatlarining asl maqsadi avval boshdan bank mablag'larini qaytarish niyatisiz noqonuniy olib qo'yishdir.
Taxmin qilingan kelishuv predmeti va ta'minlash shartlarining nomuvofiqligi	Haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlar sirasiga aybdor tomonidan kredit shartnomasida nazarda tutilgan qarzni to'lashning ikkilamchi manbalari (garov predmeti va unga garovga qo'yuvchining huquqlari, bank kafolati, kafilligi, sug'urta shartnomasi mavjudligi va sug'urta shartlari to'g'risida) mavjudligi haqidagi soxta ma'lumotlar kiradi.

1-rasm: Firibgarlar tomonidan bankga taqdim etiladigan g'arazli niyatlarda haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlar turlari

Manba: muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlar sirasiga aybdor tomonidan kredit shartnomasida nazarda tutilgan qarzni to'lashning ikkilamchi manbalari (garov predmeti va unga garovga qo'yuvchining huquqlari, bank kafolati, kafilligi, sug'urta shartnomasi mavjudligi va sug'urta shartlari to'g'risida) mavjudligi haqidagi soxta ma'lumotlar kiradi.



Niqoblash harakatlarining asosiy maqsadi jinoyatchining sodir etgan jinoyati uchun javobgarlikdan qochish istagi. Shu bilan birga, firibgarlikda niqoblash harakatlarning katta qismi jinoyatga tayyorgarlik ko'rish bosqichida amalga oshiriladi.

Bu holatda firibgarlarning aniq maqsadlari: tergovni noto'g'ri yo'lga yo'naltirish (chalqitish); jinoyatchini o'z vaqtida aniqlashga imkon bermaslik yoki jarayonni murakkablashtirish; aybdorning kredit shartnomasini tuzishda ishtirok etganligi va jinoyat joyida bo'lganligi faktini yashirish (pasporti o'g'irlangani haqida ariza berish); bank pullarini qo'lga kiritganining asl sabablarini yashirish (jinoiy-huquqiy tajovuzni fuqarolik-huquqiy nizo shakliga o'tkazish (maskirovkalash) imkoniyati).

Kelajakdagi qarz oluvchi haqidagi ma'lumotlarning ishonchli chiqishi hamda kredit ajratuvchi bankda ishonchli qarz oluvchi taassurot uyg'otish uchun firibgarlar soxta firmalar tuzadilar, quyidagi hujjatlarni sotib oladilar yoki o'zlari tayyorlaydilar: firmaning huquqiy layoqati va salohiyatiga hamda go'yoki uning ijobiy obro'si haqida; firma rahbarining shaxsi to'g'risida (vakillari), ularda kredit olish uchun tegishli vakolat bor yoki yo'qligi to'g'risida; qarz oluvchi firmaning moliyaviy imkoniyatlari (qarzni to'lash uchun mablag' ishlab topish qobiliyati, shaxsiy kapitaliga kiritilgan investitsiyalar miqdori) haqida guvohlik beruvchi hujjatlar.

Ko'pincha, jinoyat sodir etishga tayyorgarlik jarayonida firibgar IIB xodimiga o'z pasportini yo'qotganligi to'g'risida ariza bilan murojaat qiladi. Yo'qolgan pasport yordamida bitim tuzish firibgarga keyinchalik unda ishtirok etishni rad etish va shu asosda majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish imkonini beradi.

Bankka kelajakdagi kreditning asl maqsadlari to'g'risida yolg'on ma'lumot berishdan oldin soxta biznes-loyihalar va rejalar, qalbaki shartnomalar tayyorlanadi. Ularning so'nggisidan foydalanish ko'lami bilvosita birja tahlilchilarining ma'lumotlari bo'yicha baholanishi mumkin.

Bankni taklif etilayotgan bitimni ta'minlash shartlari to'g'risida chalqitish uchun kreditni ta'minlash bo'yicha soxta hujjatlar – kredit shartnomasida nazarda tutilgan qarzni to'lashning ikkilamchi manbalari to'g'risida (garov predmeti va garovga oluvchining unga bo'lgan huquqlari to'g'risida, bank kafolati, kafilligi to'g'risida, sug'urta shartnomasining mavjudligi va sug'urta shartlari to'g'risida) hujjatlar tayyorlanadi.

Firibgarlarning tayyorgarlik harakatlari sirasiga amalda mavjud bo'lgan ko'chmas mulk uchun soxta hujjatlar tayyorlash holatlarini ham kiritish kerak (uni ro'yxatdan o'tkazishning soxta yozuvlari bilan garov shartnomasi; soxta bank kafolati, soxta kafillik, soxta sug'urta guvohnomasi).

Firibgarlikni sodir etish (tayyorlash va niqoblash) usuli ushbu jinoyatning moddiy va mukammal izlarida namoyon bo'ladi.

Kriminalistikada jinoyat izlari odatda uchta asosiy guruhga bo'linadi, ular quyidagilardan iborat:

- 1) izlar – o'g'irlik sodir etish (va tayyorlash) belgilari;
- 2) izlar – o'g'irlikni niqoblash belgilari;
- 3) izlar – o'g'irlangan narsadan foydalanish belgilari.

Izlarni shakllantirish mexanizmi firibgarlikni sodir etish usuli bilan oldindan belgilanadi. Ushbu jinoyatni tayyorlash, sodir etish va niqoblash tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan kredit shartnomasini tuzish bilan "bog'langan". Bank tomonidan yuritiladigan "kredit ishi" hujjatlari ushbu toifadagi holatlar bo'yicha daliliy ma'lumotlarning eng qimmatli manbalari hisoblanadi. Ular qatoriga quyidagi hujjatlar kiradi: kredit olish uchun ariza; tashkilot haqida batafsil ma'lumot ko'rsatilgan holda qarz oluvchining so'rovnoma; qarz oluvchining bosh direktori va bosh buxgalteri to'g'risidagi ma'lumotlar (va ularning pasportlarining nusxalari); ularning imzolari namunalari va muhrlari bosma izi; qarz oluvchi tashkilot ustavining nusxasi; shartnoma predmeti, kredit olish maqsadi, kreditni ta'minlash manbalari ko'rsatilgan kredit shartnomasi; qarz oluvchi tomonidan qarz olishni talab qiladigan savdo yoki boshqa operatsiya loyihasiga tushuntirish xati. Tushuntirish xatiga quyidagilar ilova qilinadi: qarz oluvchining buxgalterlik balansi; kredit shartnomasi tuzish vaqtida foyda va zarar to'g'risida hisobot; qarz oluvchining debitor va kreditor qarzlari rasshifrovkasi; garov shartnomasi; qarz oluvchining boshqa banklarda ochilgan hisob raqamlari to'g'risida ma'lumotnoma; hisobraqamlar bo'yicha boshqa banklardan ko'chirma.

Ushbu hujjatlarning aksariyatida firibgarlikni nafaqat sodir etish usuli, balki unga tayyorgarlik ko'rish va niqoblash usullari haqida ham ma'lumotlar mavjud. Bunda, barcha uch turdagi ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi: dastlab gumon qilinuvchilar doirasini, ular tomonidan soxta hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan texnik va boshqa vositalarni aniqlash, so'ngra jinoiy harakatlarni sodir etishda aybdorlarni fosh qilishda yordam beradi.

Qarorlar qabul qilish va kredit mablag'larini berish tartibini soddalashtirishga qaratilgan jinoyat sodir etish holatini qasddan o'zgartirish jinoyatchi tomonidan maxsus yaratilgan vaziyatlarga kiradi (masalan, ushbu maqsadlar uchun mas'ul shaxslar bilan rasmiy bo'lmagan munosabatlarni o'rnatish, mazkur shaxslarning kredit berishga shaxsiy manfaatdorligi sharoitini yuzaga keltirish, kreditni rasmiylashtirish va berish bilan bog'liq shaxslarning ish jarayonida asabiylashish va shoshqaloqlikni keltirib chiqaradigan vaziyatlarni uyushtirish).



Bank kredit mablag'larini firibgarlik yo'li bilan o'g'irlash ishtirokchilari ikkita asosiy guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga bank xodimlari bilan aloqasi bo'lmagan shaxslar, ikkinchi guruhga – o'g'irlikda ishtirok etadigan bank xodimlari kiradi.

O'z navbatida, birinchi guruh qarz oluvchi soxta kompaniyalarni tuzish, qalbaki hujjatlarni tayyorlash, kredit shartnomasini rasmiylashtirish, kredit mablag'larini olish va naqdlashtirish bo'yicha o'zaro majburiyatlar taqsimlangan shaxslardan iborat bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi hollarda firibgarlar tomonidan o'z hisobvrag'iga olingan naqd pulni yechib olish uchun bankka yuborilgan shaxslar jinoiy guruhlarining a'zosi bo'lmagan va operatsiyaning asl mohiyati to'g'risida tasavvurga ham ega bo'lmagan.

Ikkinchi guruhga bank xodimlari orasidan firibgarlarning sheriklari bo'lgan quyidagi shaxslar kirishi mumkin: boshqaruv qarorlarini qabul qiladigan shaxslar; kredit shartnomasini rasmiylashtirishda ishtirok etadigan shaxslar; kredit berish to'g'risidagi qarorni axborot va huquqiy qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadigan shaxslar.

Bankning ushbu xodimlari firibgarlar manfaati uchun bankning kredit siyosatiga mos kelmaydigan yoki o'zlarining rasmiy vakolatlari doirasiga kirmaydigan qarorlar qabul qilishlari mumkin. Ular kredit shartnomasini tuzishning belgilangan shakli va tartibidan chetga chiqishga yo'l qo'yishi mumkin. Qarz oluvchi tashkilot va uning vakili bilan bog'liq ma'lumotlarni tekshirish tartibi, kredit olish maqsadlari va uni ta'minlash manbalari to'g'risidagi talablar buzilishi mumkin.

4. XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahonda vujudga kelgan hozirgi vaziyat xavfsizlik tizimlarining turli darajalari bilan belgilanadigan vazifalardagi farq bilan izohlanadi. Ulardan birida (makro darajada) huquqni muhofaza qilish organlari ko'plab noma'lum obyektlarning xavfsizligini ta'minlash vazifasini hal qilishadi. Uni amalga oshirish jarayonida jinoyatchilikning oldini olish muammolari ularni aniqlash va bostirish muammolariga obyektiv ravishda o'z o'rnini beradi. Ko'rsatib o'tilgan obyektlarga tajovuz qilingan jinoyatlarni aniqlamasdan turib, ularning sodir etilishiga olib kelgan sabablar va shartlarni aniqlab bo'lmaydi. O'z-o'zidan tegishli himoya choralari amalga oshirish ham mumkin emas.

Yana bir daraja – o'z xavfsizligini ta'minlaydigan alohida obyekt darajasi, makro darajada olingan kriminalistika ma'lumotlari asosida jinoyatchilikning oldini olish choralari qo'llashni afzal va ustuvor qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, firibgarlik yo'li bilan kredit mablag'larini o'g'irlashga tayyorgarlik ko'rish, uni sodir etish va niqoblash u bilan bog'liq boshqa bir qator jinoyatlarni ham qilishni nazarda tutadi. Jumladan: soxta tadbirkorlik, ya'ni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish niyati bo'lmagan va faqatgina kredit olishni maqsad qilgan tijorat tashkilotini tashkil etish; kredit arizasiga ilova qilinadigan qalbaki hujjatlarni tayyorlash maqsadida rasmiy hujjatlar, shtampalar yoki muhrlarni o'g'irlash, shuningdek, jinoiy rejani amalga oshirish uchun fuqaroning pasport yoki boshqa muhim shaxsiy hujjatini o'g'irlash.

Bundan tashqari, agar bank xodimlari firibgarlikka aloqador bo'lsa, ushbu jinoyat vakolatni suiiste'mol qilish va tijorat poraxo'rliги kabi tijorat va boshqa tashkilotlarda xizmat manfaatlariga qarshi jinoyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kredit olishda firibgarlik yo'li bilan sodir etiladigan o'g'irliklarning kriminalistik oldini olish choralari. Kredit olishdagi firibgarliklarning oldini olish uchun bankning xavfsizlik xizmati eng kamida quyidagi harakatlarni amalga oshirishi kerak.

1. Shartnoma loyihasida nazarda tutilgan miqdorda va shartlarda tashkilotning kredit shartnomasini tuzish huquqini tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiylikni tekshirish. Shuningdek, tashkilot rahbari yoki vakilining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarining haqiqiylikni, ularda kredit olish uchun tegishli vakolat bor yoki yo'qligini, ishonchnomaning to'g'ri rasmiylashtirilgani va hokazolarni tekshirish kerak. O'ta zarur hollarda, taqdim etilgan pasport va ishonchnomadan nusxa olish, ishonchnomani vakolatli shaxsning tasdiqlangan fotosurati bilan birga qabul qilish foydadan holi bo'lmaydi.
2. Ustav hujjatlarini, soliq organlarining ma'lumotlarini va boshqalarni o'rganish orqali qarz oluvchi tashkilotning haqiqatda mavjudligini tasdiqlovchi ma'lumotlarni olish. Kredit olish uchun tuzilayotgan bitim qonun hujjatlariga va qarz oluvchining ustav hujjatlariga mos kelishini aniqlash. Bunday tekshirish harakatlarini amalga oshirishda faqat hujjatlarni o'rganish bilan cheklanib qolmaslik maqsadga muvofiqdir. Qarz oluvchi tashkilotning haqiqatda mavjudligi to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlar firmaning doimiy ishlab chiqarish va saqlash joylari, shuningdek, firmada mavjud bo'lgan tovarlar yoki mahsulotlar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarga oydinlik kiritadi.
3. Qarz oluvchining qarzni uzish va kreditni to'lash uchun mablag' topish qobiliyatini aniqlash. Shu maqsadda firmaning qancha vaqtdan buyon tovarlar va xizmatlar bozorida ishtirok etishi, ijobiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi. Kredit tarixi (qarz oluvchi boshqa kredit tashkilotlaridan kredit olganmi, ularni olishda qonunbuzarliklarga yo'l qo'ymaganmi; kredit si-



fatida olingan pul qanday ishlatilgan; bankka pulni qaytarish bilan bog'liq muammolar bo'lganmi yoki yo'qmi hamda ishbilarmonlar davrasida sheriklari (kontragentlar, kreditorlar, banklar) orasidagi nufuzi o'rganiladi

4. Qarz oluvchining kredit olinayotgan loyihaga kiritayotgan shaxsiy kapitalining yetarililigi tekshirish. Ushbu ko'rsatkichlar balanslar, kassa hisob-kitob hujjatlari va boshqa birlamchi buxgalteriya hujjatlari bilan baholanishi mumkin. Qarz oluvchida yetarli miqdordagi tovarlar yoki mahsulotlarning mavjudligi uning niyatlari to'g'riligining tegishli tasdig'i hisoblanadi.
5. Qarzni to'lashning ikkilamchi manbalari (garov shartnomasi, kafolat, kafillik, sug'urta guvohnomasi) to'g'risidagi hujjatlarning haqiqiylikini to'liq huquqiy va faktik baholashdan o'tkazish. Xususan, ularning fuqarolik qonunchiligi normalariga aniq mos kelishini, moddiy va intellektual qalbakilashtirishning ehtimoliy belgilari mavjudligini tekshirish. Kafolat xati, sug'urta guvohnomasi va shu kabilarni berish fakti kafilning tegishli hujjatlarida aks ettirilganiga aniqlik kiritish. Bunda, shuni yodda tutish kerakki, ayrim insofsiz tijorat banklari o'zlari bergan kafolatlarni soxta deb e'lon qilgan holatlar ham uchragan.
6. So'ralayotgan kreditning maqsadlari bo'yicha aniq javoblarni, shuningdek, ishlab chiqarilgan paytdan boshlab sotish joyiga yetkazib berishgacha bo'lgan butun texnologik zanjir bo'ylab taklif etilayotgan shartnomaning mazmuni va mexanizmini ochib beradigan; potensial qarz oluvchining istiqbolli kontragentlari faoliyati xususiyati to'g'risidagi; kontragentlar tomonidan qarz oluvchiga kutilayotgan nomenklatura va sifatidagi tovarlarni belgilangan muddatda yetkazib berish, foydalaniladigan transport birliklarining turi va soni, tovarlar (xomashyo)ni yetkazib berishga tegishli shartnomalarning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish.
7. Kredit shartnomasi tuzilgandan so'ng, kreditni to'lashga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan holatlarni o'z vaqtida aniqlash uchun uning bajarilishini nazorat qilish. Bunday holatlar yuzaga kelganda, uning salbiy oqibatlari zararini kamaytirish choralarini ko'rish.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. (<https://lex.uz/acts/111453>)
2. М. Ш. Махтаев. Основы теории криминалистического предупреждения преступлений: Монография. М.: Раритет, 2001. С. 29.
3. И. Ф. Крылов, А. И. Бастрыкин. Розыск, дознание, следствие. Л., 1984. С. 175.
4. Р. С. Белкин. Курс криминалистики. В 3-х т. Т.1: Общая теория криминалистики. М.: Юристь, 1997.
5. Криминалистика: Учебник/ Под ред. Е.П. Ищенко. М.: Юристь, 2000. С. 17–18.
6. Криминалистика: Учебник/ Под ред. В.А.Образцова. М.: Юристь, 1997. С. 5.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.